

Urdu tilida substantiv soʻz birikmalarining leksik-semantik xususiyatlari

Mazkur maqolada tobe va hokim soʻzi ot soʻz turkumiga xos boʻlgan substantiv soʻz birikmalari tahlil qilinadi. Hozirgi adabiy urdu tilida substantiv soʻz birikmalari miqdori jihatidan eng koʻp hamda turli xil shaklga ega soʻz birikmalar guruhi hisoblanadi. Biroq ular verbal, yaʼni feʼlli soʻz birikmalaridan koʻp emas.

Soʻz turkumi sifatida otga predmetlilik xususiyati xosdir, biroq bu xususiyat sintaktik emas, balki leksik maʼno kasb etadi. Shuning uchun ham bu substantiv soʻz birikmalarining tahlili jarayonida uning bu xususiyati hech qanday ahamiyatga ega emas. Ot soʻz turkumiga substantivlik va kvalifikativlik kategoriyasi qanchalik xos boʻlsa, biron matn parchasining sintaktik tahlili jarayonida tahlilning sintaktik kategoriyalariga tayanib ish koʻrish zarur. Maqolada substantiv soʻz birikmalarining yuqorida sanab oʻtilgan xususiyatlarini koʻrib chiqish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Substantivlik komponentlaridan biri ot bilan ifodalangan soʻz birikmalari uchun doimiy xususiyat boʻla olmaydi, masalan, tobe boʻlak کا poslelogli ot bilan, hokim boʻlak esa ot bilan ifodalangan boʻlsa, ikki xil holatni kuzatishimiz mumkin - poslelogli ot baʼzan substansional element sifatida kelishi mumkin (پھاڑ کی ہوا ~ togʻ havosi) va baʼzan kvalifikativ unsur (پھاڑی ہوا ~ togʻdagi havo). Ikkinchi holatda u funksional jihatdan asos soʻz yoki sifatga teng boʻladi. Shundan kelib chiqqan holda substantiv soʻz birikmalarini ikkiga ajratish mumkin. Bular atributiv (aniqlovchili) va kompletiv (toʻldiruvchili) soʻz birikmalaridir.

Soʻz birikmalarini tuzilish jihatidan tahlil qilishda ularning tarkibidagi soʻzning u yoki bu atributiv yoki kompletiv soʻz birikmalari guruhiga

mansubligini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.¹ Bunday usul bir xil turdagi so'z birikmalarini ikki guruhga mansub qilib qo'yishning oldini oladi va ularni to'g'ri saralash imkonini tug'diradi. Kompletiv hamda atributiv munosabatlar bir qator umumiy jihatlarga egadir: birinchidan, har ikkisida ham tobe va hokim bo'lak bo'ladi; ikkinchidan, substantiv so'z birikmalarida kompletiv aloqa doim murakkablashgan holatda bo'ladi: unga doim atributivlik xususiyati ham uyg'unlashib keladi. Shunday qilib, to'ldiruvchi va hol qatnashgan munosabatlarni tahlil qilinish jarayonida doimo ular orasidagi kompletiv munosabatlar atributiv munosabatlar bilan chatishib ketganligini yodda tutish zarur.²

Otlarga barcha leksik-grammatik guruhga xos sifatlar birikib keladi, ular orasida asliy va nisbiy sifatlar sermahsul hisoblanadi. Asliy sifatlar so'z brikmasining tobe qismi sifatida qiyosiy va orttirma darajada kelishi mumkin. Sifatlar qiyosiy darajasining sintetik yo'l bilan yasalishi natijasida, ya'ni forsiydan o'zlashgan – تر suffiksi qo'shilishi natijasida so'z birikmasi ikki komponentli bo'ladi. Masalan: خوبصورت تر مکان ~ chiroyliroq imorat

Orttirma darajadagi sifatlar ishtrokidagi substantiv so'z birikmalari asosan uch komponentli bo'ladi.

Shuningdek, orttirma daraja shaklini yasashda بڑا ravishidan tashqari بڑا o'zgaruvchan sifati ham qo'llanadi: بڑا کنجوس کسان ~ o'ta ziqna dehqon

Misollar orasida sifatning orttirma darajasini نہایت ravishi bilan ham yasalganini uchratdik: نہایت غم گین آواز nihoyatda ma'yus ovoz

Arab tilidan kirgan بالکل "mutlaq, butunlay" ravishi ham orttirma daraja shaklini yasaydi: بالکل کالے کپڑے ~ mutlaq qora kiyimlar

¹ H Kellogg. A Grammar of the Hindi Language, London, 1955, -P. 23

² Ульциферов О.Г. Словосочетания в хинди, М., 1971, 55 –С.

Asliy sifatlar erkalovchi-kuchaytiruvchi سا yuklamasi bilan ham kelishi mumkin. سا yuklamasi belgi-xususiyatning kam yoki ko‘pligini ko‘rsatadi:

~ bir kattagina qush ایک بڑا سا پرند

سا yuklamasi o‘zgaruvchan bo‘lib, u o‘zidan keyin kelgan ot bilan son va jinsda, kelishikda o‘zgaradi: ~ yengil tabassum حقیف سی مسکراہٹ:

Urdu tilida takroriy sifatlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular otga turli xil semantik bo‘yoq berib, uch komponentli so‘z birikmalarini tashkil etadi:

~ yaxshi-yaxshi ishlar bilan اچھے اچھے کاموں سے

Nisbiy sifatlar so‘z birikmasining tobe komponenti sifatida ot so‘z turkumidagi so‘zni boshqa predmet, ish-harakat hamda voqea-hodisalarga nisbatan munosabatini ko‘rsatadi: ~ chet el kiyim-kechaklari ولايتی کپڑے

Qon-qarindoshlikni anglatuvchi sifatlar substantiv so‘z birikmasining tobe komponenti sifatida jonli predmetni anglatgan hokim bo‘lakni aniqlab keladi: ~ xolavachcha (qiz) خالازد بہن

Urdu tilida کا eng sermahsul poslelogdir. Mazkur poslelog ishtrokidagi aksariyat so‘z birikmalari “ot+کا +ot” shaklida uchraydi. کا poslelogli so‘z birikmasi bildirgan asosiy ma’no undagi komponentlarning leksik ma’nosidan kelib chiqadi. Negaki, har bir komponentning juz’iy ma’nosi birikmadagi asosiy ma’noga qo‘shilib, umumiy ma’no chiqadi. Ma’lumki کا poslelogi adyektiv yoki atributiv poslelog deb talqin qilinadi. Mazkur poslelogning asosiy vazifasi u aniqlab kelgan so‘zni to‘ldirishdir, ya’ni u sifat so‘z turkumi sifatida keladi. کا poslelogi qaratqich kelishigi qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi. U bilan ishlatilgan so‘z yoki so‘z birikmasi o‘zidan keyingi so‘zga aniqlovchi bo‘lib keladi. کا

poslelogining xususiyatlari to'g'risida to'liq ma'lumotni Z.M.Dimshits ishlarida uchratish mumkin: “**کا** poslelogi asosan rus tilidagi qaratqich kelishigiga to'g'ri keladi. So'z yoki **کا** poslelogli so'z birikmasi keyingi so'z uchun aniqlovchi yoki to'ldiruvchi vazifasini bajaradi”. So'nggi keltirilgan fikrdan ko'rinib turibdiki, Z.M.Dimshits **کا** poslelogining nafaqat kvalifikativ, balki substantiv valentligini ham ajratib ko'rsatadi. Z.M.Dimshitsdan tashqari **کا** poslelogining sintaktik jihatlari ustida ishlagan bir qator olimlar uning biron narsaga oidlik; narsaning qanday materialdan yasalganligi; qaysi turga aloqadorligi; biron millat yoki qavmga daxldorligi; yoshi yoki narx-navoni bildirishi kabi ma'nolarni sanab o'tganlar. Bunday tahlilning tagida **کا** poslelogi orqali istalgan iboraning adyektiv xususiyatga ega, degan ta'rifi yotadi. Demak, **کا** poslelogli so'z birikmalarining klassifikatsiyasi asosida uning ism oldidan qo'llanilishidagi barcha jihatlari yotadi. **کا** poslelogi o'zaro substansil yoki kvalifikativ munosabatdagi ikki so'zni bog'laydi. **کا** poslelogli so'z birikmalari komponentlararo munosabatlarga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Substansial, posessiv so'z birikmalari. Posessiv so'z birikmalarida hokim komponent konkret substansiya, **کا** poslelogli tobe komponent esa ana shu substansiya qarashli bo'lgan shaxsni anglatadi. Masalan: **ابو خان کی بکریاں** ~ Abuxonning echkilari

Bu yerda **کا** poslelogi atributiv vazifani bajarmaydi, ya'ni bu yerda sifatlash yo'q. Mazkur so'z birikmalaridagi hokim so'zni unga sinonim bo'lgan boshqa sifat bilan o'zgartirib bo'lmaydi. Bu yerda ikki bo'lak o'rtasida substansial, aniqrog'i posessivlik munosabatlari yaqqol ifodalangan. Bunday so'z birikmalari sirasiga odatda jonli predmeti anglatgan hokim bo'lak, hokim bo'lak anglatgan substansiya qarashli bo'lgan predmetni bildiruvchi tobe bo'lakdan iborat birikmalar ham kiradi. Masalan: **کسانوں کے کھیت** ~ dehqonlarning dalalari

Posessiv-agentiv substansial soʻz birikmalariga ham substansiallik va posessivlik xususiyatlari xosdir: **حکیموں کا علاج** ~ tabiblarning muolajasi

Belgi xususiyatiga ega substansial posessiv soʻz birikmalari. Posessiv hamda posessiv-agentiv soʻz birikmalariga belgi xususiyatiga ega posessiv soʻz birikmalari zid keladi. Bu yerda posessiv hamda substansial xususiyatlar bilan bir qatorda hokim komponent biron belgiga ega qilib koʻrsatiladi. Birikmaning bu xususiyati bir tomondan, biron belgiga ega boʻlish yoki bunday belgiga ega boʻlmaslik jihatidan farq qilsa, ikkinchi tomondan posessiv-agentiv soʻz birikmalaridan biron ega belgiga ega boʻlgan holda, agentning ham mavjudligi jihatidan ajratib turadi. Mazkur turdagi soʻz birikmalarida hokim boʻlak biron substansiyaning va unga xos belgi xususiyatni bir butun holda ifodalaydi. Masalan: **پہلوں کی مٹھاس** ~ mevalarning mazasi

Tobe boʻlakning u yoki bu belgi-xususiyatga ega boʻlishi **کا** poslelogli otlarning lugʻaviy qamrovini yanada kengaytiradi. Posessiv soʻz birikmalaridan farqli oʻlaroq bu yerda otlarning faqat jonli predmetni anglatishiga urgʻu berib boʻlmaydi. Chunki **کا** poslelogiga birikib keluvchi otlar son-sanoqsiz: bu yerga jonli, jonsiz predmetlarni ifodalovchi otlardan tashqari mavhum otlar ham kiradi. Bu soʻz birikmalarining hokim komponenti sifatida odatda, aniq belgi-xususiyatga ega muannas jinsidagi mavhum otlar ishtirok etadi. Masalan: **سہیلی کی حماقت** ~ dugonaning ahmoqligi

Yuqorida koʻrib chiqilgan soʻz birikmalariga oʻxshash boʻlgan bu posessiv soʻz birikmalarida **کا** poslelogli ot atributiv soʻz birikmasi tarkibida substantiv aniqlovchi oldidan, yaʼni unga prepozitsiyada keladi. Masalan : **کوٹھری کی** ~ omborchaning derazasi

Mazkur turdagi soʻz birikmalarining alohida jihati **کا** poslelogli otning substansiya va posessivlikni bildirishdan tashqari butunlikni ham ifodalashida

namoyon bo'ladi. Ushbu butunlikning bir qismi bo'lgan hokim komponent substansiyani anglatadi. Posessiv so'z birikmalaridan mazkur so'z birikmalari butunlikni anglatishi, ammo ayni paytda shu butunlikka ishora yo'qligi bilan ham farq qiladi. Posessiv-agentiv so'z birikmalaridan esa butunlikni anglatishi va agentni bildirishi, belgi-xususiyatga ega posessiv so'z birikmalaridan esa butunlikni anglatishi va hokim so'zning belgi-xususiyatini bildirishi bilan farqlanadi. Sof posessiv so'z birikmalaridan farqli ravishda bir butunning qismini anglatuvchi posessiv so'z birikmalari deyarli barcha leksik birliklardan yasaladi. Boisi sof posessiv so'z birikmalaridagi tobe komponentning jonli ot bilan ifodalanib kelishi shartdir, modomiki bu turdagi so'z birikmalarining tobe komponenti istalgan aniq predmetni bildiruvchi ot bo'lib kelishi mumkin. Biroq mazkur turdagi so'z birikmalari leksik qamrovi jihatidan tarkibida mavhum tushunchani bildirib keluvchi ot bo'lgan belgi xususiyatiga ega posessiv so'z birikmalaridan kamchilikni tashkil etadi.

Masalan: **ایک گھر کا دروازہ کھل پڑا** ~ Bir uyning eshigi ochilib ketdi

Posessiv-lokativ so'z birikmalari bir qarashda yuqorida sanab o'tilgan bir necha turdagi posessiv so'z birikmalariga o'xshaydi: **توگ کے دامن میں** ~ tog' etagida

Biroq ular orasida farq shuki, bir tomondan ularga agentivlik, belgi-xususiyatga egalik va bir butunning qismini bildirish xususiyati xos bo'lsa, posessiv-lokativ substansial so'z birikmalariga o'rin-joyini, ya'ni makonni anglatish xosdir. Posessiv-lokativ so'z birikmalari odatda jonsiz predmetlarni anglatuvchi turdosh hamda atoqli otlardan – mamlakatlar, shaharlar, tog'lar, daryolar, dengizlar, muassasalar kabi joy nomlarini bildiruvchi otlardan yasaladi: **پاکستان کے لوگ** ~ Pokiston odamlari .

Posessiv so'z birikmalariga boshqalardan uchinchi sintaktik-semantik xususiyat – temporiallik (vaqtga ishora) mavjudligi bilan ajralib turuvchi posessiv-

temporial soʻz birikmalari ham juda yaqindir. Possessiv-lokativ va possessiv-temporial soʻz birikmalari oʻrtasidagi mavjud qarama-qarshilik oʻz-oʻzidan har ikki soʻz birikmasi shakllanuvchi leksik materialda ham oʻz aksini topadi. Temporial soʻz birikmalarining leksik qamrovi u yoki bu vaqt boʻlagini anglatuvchi turdosh otlardan va atoqli otlardan yaʼni hafta kun nomlari, oylar, bayramlardan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, urdu tilida substantiv soʻz birikmalari hamda ularning leksik-semantik xususiyatlarining oʻrganilishiga bagʻishlangan mazkur ishda faqat tobelanuvchi bogʻlanishgagina xos boʻlgan soʻz birikmasi, bu bogʻlanish orqali atributiv-aniqlovchilik, kompletiv munosabatlarining ifodalanishi tahlil etildi. Shu bilan birga substantiv soʻz birikmalarining aksariyat qismi “ot+ot”, poslelogli va poslelogsiz hamda “sifat+ot” qolip shakllariga muvofiq keluvchi birikmalardan tashkil topganligi belgilandi. Poslelog ishtrok etgan soʻz birikmalari ichida “ڪ” poslelogli konstruksiyalar alohida oʻrinni egalladi. Negaki “ڪ” ning qolgan posleloglarga nisbatan, komponentlar ortasidagi munosabatlarga koʻra guruhlanishi ancha keng qamrovlidir. Shunday ekan substantiv soʻz birikmalarining urdu tilida deyarli oʻrganilmaganligi inobatga olinsa, bu sintaktik konstruksiyaning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давидова А.А. Вопросы глагольного словообразования в хиндустани. М., 1958
2. Дымшиц З.М. Очерк грамматики языка урду. М., 1959
3. Ульциферов О.Г. Словосочетания в хинди. М., 1971
4. Kellogg S.H. A Grammar of the Hindi Language, London, 1955
5. Ismat Javed. Nai urdu qavaid, Nai Dilli 1985

